

## O'ZBEKISTONDA XANDON PISTANING ISTIQBOLLI NAVLARINI YETISHTIRISH

**Norboyev Sirojiddin Abdurahmon o'g'li**

“T.I.Q.X.M.M.I” Milliy tadqiqot universitetining  
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

**Turg'unboyeva Noibaxon Dilyorbek qizi**

“T.I.Q.X.M.M.I” Milliy tadqiqot universitetining  
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi

**Annotatsiya:** Mustaqillikka erishilgandan buyon o'rmon xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Xandon pista o'simligi mamlakatimizda qimmatbaho hosil beradigan yong'oq mevali o'simliklar sifatida katta ahamiyatga ega. O'zbekiston hududlarida pistaning istiqbolli navlarini o'stirish va hosilni yanada ko'paytirish uchun keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Xandon pista (Pistaceo Vera L), plantasiya, Aldina navi, Orzu, Garnoja jemchujina, A-8 Lakomka, A-55 Otrada, A-56 Urojaynaya, genefond

**Abstract:** Since independence, a lot of attention has been paid to the development of forestry. The Khandan pistachio plant is of great importance in our country as a valuable nut-bearing plant. In the regions of Uzbekistan, large-scale works are being carried out to grow promising varieties of pistachios and to further increase the yield.

**Key words:** Khandan pistachio (Pistaceo Vera L), plantation, Aldina variety, Orzu, Garnoja gemchujina, A-8 Lakomka, A-55 Otrada, A-56 Urojaynaya, gene pool

**Аннотация:** С момента обретения независимости большое внимание уделяется развитию лесного хозяйства. Ханданская фисташка имеет большое

значение в нашей стране как ценнное орехоплодное растение. В регионах Узбекистана проводятся масштабные работы по выращиванию перспективных сортов фисташки и дальнейшему увеличению урожайности.

**Ключевые слова:** фисташка Хандон (*Pistaceo Vera L*), плантация, сорт Алдина, Орзу, Гарноя гемчужина, А-8 Лакомка, А-55 Отрада, А-56 Урожайная, генофонд.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridan boshlab o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirishga katta e’tibor bermoqda. O‘rmonchilik xo‘jaliklari nafaqat yog‘och mahsulotlari balki o‘rmon mevalari va dorivor o‘simpliklar yetishtirilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bizning mamlakatimizda qimmatbaho hosil beradigan yong‘oq mevali daraxtlar orasida Xandon pista (*Pistacia Vera. L.*) katta ahamiyatga ega. U pistadoshlar oilasiga mansub bo‘lib, qurg‘oqchilikka, issiqqa, sovuqqa chidamli va tuproq tanlamaydi. Tanlab olingan Xandon pista shakl va navlaridan ko‘plab lalmikor yerlarda uning sanoat plantatsiyalarini barpo qilish imkoniyatini beradi. Bu imkoniyat esa bir necha muammoni hal qilishi mumkin:

Aholini to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish;

Tog‘ va tog‘oldi hududlarida erroziya jarayonining oldini olish;

Mavjud o‘rmonzorlar maydonini kengaytirish;

Sug‘oriladigan yerlarda suvni tejash va boshqalar.

**Xandon pistaning istiqbolli navlari.** Albina. O‘rtal bo‘yli keng shox shabbali daraxt. 10-12 yildan so‘ng hosil bera boshlaydi. Yong‘og‘ining o‘rtacha o‘lchami  $17 \times 10 \times 9$  mm ellipssimon, och kumushrangda bo‘ladi. Yong‘oq hosilidan ochiq yong‘oqlarning chiqishi 80-85% bo‘lib, uning mevasi yaxshi qadoqlanadi. Uning mevasi mag‘zi 3-4 yil davomida o‘zining ta’mini saqlab qoladi. Mag‘zi tarkibida 5% gacha shakar, 59% yog‘ va 13% oqsil mavjud.

Orzu. Baland bo‘yli yumaloq shox shabbali daraxt. 10-12 yildan so‘ng to‘liq hosil bera boshlaydi. Mevalari “yuqori hosilli” ga kiruvchi zararkunanda va atmosfera

qurg‘oqchiligiga chidamli nav. Yong‘og‘iga hech qanday ishlov berilmasa ham 2 yil davomida o‘zining ta’mini yo‘qotmaydi. Bu nav ham yaxshi qadoqlanadi.

Garnoja jemchujina. O‘rta bo‘yli yumaloq shox shabbali daraxt. Uzoqroq muddatda hosil bera boshlaydi, ya’ni 12-15 yilda. Qobig‘ining ochiqligi juda yuqori bo‘lib, mag‘zining qobig‘i och qizil, quruq, yashil va ta’mi mazali bo‘ladi. Mag‘zida 5% gacha shakar, 57% yog‘, 13% oqsil mavjud.

A8 (Lakomka). Apsheron (Ozarbayjondagi) pistazorlardan ajratib olingan. U 8-10 yildan so‘ng to‘la hosil bera boshlaydi. Yong‘og‘i juda yirik. 100 donasining massasi 140-145 gramm. U kasallik va zararkunandalarga o‘rtacha chidamli chidamlidir.

A55 (Otrada). Ozarbayjondagi pistazorlardan ajratib olingan nav, shox shabbasi kompakt shaklda, kech gullaydigan va mevasi kech yetiladi. Yong‘og‘i juda yirik, yumaloq, qobig‘i oq, 100 dona yong‘oq massasi 120-140 gramm, ochiq yong‘oqlarning chiqishi 90%. Ekilgandan 8-10 yil o‘tib to‘la hosil bera boshlaydi.

A56 (Urojaynaya). Shox shabbasi panjarasimon kech gullaydi va mevasi kech shakllanadi. Uning uchun changlantiruvchi sifatida OP-1, OP-2, X-2 lardan foydalansa yaxshi samara beradi. Ochiq yong‘oqlarning chiqishi 96% ni tashkil etadi. U ekilgandan 8-10 yil o‘tib to‘la hosilga kira boshlaydi.

Mustaqillik yillaridan so‘ng pistazorlardan yuqori hosil olishga qaratilmoqda. Buning uchun pistaning oziqlanish maydoni va ekilish sxemasi alohida o‘rganilib borildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida  $10 \times 10$  metr ekilish sxemasida pistadan yuqori hosil olish mumkinligi aniqlandi.  $10 \times 10$  metr ekilish sxemasida ekilgan daraxtdagi hosil shox shabbalarga teng taqsimlanishi, shox shabbalarning ixcham bo‘lib o‘sishi va hosilning shamol ta’sirida kam to‘kilishi kuzatilgan. Shu bilan birga bunday ekilish sxemasida hosil ancha ko‘p va sifat ko‘rsatkichlari jihatidan yuqori bo‘lishi aniqlangan. Shuni ham aytib o‘tish kerakki Markaziy Osiyo davlatlarida pistazorlar barpo etishga 1949 yildan boshlab Davlat darajasida shug‘ullanila boshlagan.

**Xulosa.** Tabiiy iqlim sharoitlar bo‘yicha aniqlangan qimmatbaho genofondni takomillashtirish, nafaqat uni boyitishda balki kelgusidagi tadqiqotlar uchun asrash va ekib ko‘paytirishda katta ahamiyatga egadir. AQSH, O‘rta Osiyo va Yaqin sharq mamlakatlarida pista yuqori mahsuldorli bog‘ ekini hisoblanadi va bu davlatlarga katta daromad keltiradi. Mamlakatimizda xandon pistaning istiqbolli navlarini yetishtirish aholi uchun qolaversa, iqtisodiy tomondan katta samara beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida” gi qonuni. Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis 15-apeel 1999 yil sessiyasi Toshkent 1999-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov 2013 Mamlakatimizda ijtimoiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ma’ruzasi materiallari 2014 yil 17-yanvar.
3. [www.pdffactory.com](http://www.pdffactory.com)
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)